



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156434>

Ibragimov Abdugapur Karimovich

Professor of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Sultanov Shohruh Nuraddin ugli

Master Student of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

In this article, based on the improvement of the internal audit service in commercial banks, it leads to the creation of a methodology for the correct organization and maintenance of accounting, as well as the timely compilation and presentation of financial reports. This will serve to further increase the reliability of information about the financial status of commercial banks and attract more investments. This article presents a description of research aimed at developing the methodology of transformation of internal audit service in commercial banks to international standards of internal audit.

Key words

Commercial banks, internal audit service, accounting and reporting, auditor, auditor's report, financial report, bank board, audit company, audit committee, audit report.

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Ibragimov Abdug'apur Karimovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi professori

Sultanov Shohruh Nuraddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida ichki audit xizmatini takomillashtirish asosida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish, yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida tuzish va taqdim etishning uslubiyotini yaratilishiga olib keladi. Bu esa tijorat banklari moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlarning ishonchliligini yanada ortishiga va investisiyalarni keng jalb qilishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada tijorat banklarda ichki audit xizmatini ichki auditning xalqaro standartlariga transformasiya qilish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan.



Kalit soʻzlar

Tijorat banklari, ichki audit xizmati, buxgalteriya hisobi va hisoboti, auditor, auditor xulosasi, moliyaviy hisobot, bank kengashi, auditorlik kompaniya, audit qoʻmitasi, auditorlik hisoboti.

ЭФФЕКТИВНЫЙ ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ОРГАНИЗАЦИЯ

Ибрагимов Абдугапур Каримович

Профессор Банковско-финансовой академия Республика Узбекистан

Султанов Шохрух Нураддин угли

Магистрант Банковско-финансовой академия Республика Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе совершенствования службы внутреннего аудита в коммерческих банках приводится создание методики правильной организации и ведения бухгалтерского учета, а также своевременного составления и представления финансовой отчетности. Это послужит дальнейшему повышению достоверности информации о финансовом состоянии коммерческих банков и привлечению дополнительных инвестиций. В данной статье представлено описание исследования, направленного на разработку методологии трансформации службы внутреннего аудита в коммерческих банках к международным стандартам внутреннего аудита.

Ключевые слова

Коммерческие банки, служба внутреннего аудита, бухгалтерский учет и отчетность, аудитор, аудиторское заключение, финансовый отчет, правление банка, аудиторская компания, ревизионная комиссия, аудиторское заключение.

Kirish.

Barchamizga maʼlumki, 2020 yil 12 mayda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisidagi” PF-5992 sonli farmoni eʼlon qilindi. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida” gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida” gi, “Valyutani tartibga solish



to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi. Ushbu farmon bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalari, 2020-2025 yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarini izlash yo'llarini belgilaydi. Shu birga bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida ichki audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish muxim hisoblanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil qilish va uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yil 7 maydagi 3302-sonli "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom qabul qilingan. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun lari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tijorat banklarida ichki audit tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarida ichki auditni xorij tajribasi yordamida o'rgangan olim N.Karimov ham ko'plab xorij davlatlaridagi ichki audit bilan bizning davlatlarning banklaridagi ichki auditni farqlarini va tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish jihatlarini o'rgangan.

Ichki auditorlar instituti (The institute of internal auditors) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra "Ichki audit-bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolatlar va maslahatlar berish faoliyatidir. Ichki audit tashkilotga o'z faoliyatini undagi risklarni boshqarish, nazorat hamda korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli va izchil yondashish orqali amalga oshirishda ko'maklashadi".



Boshqa davlatlar tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi holatni ko'rish mumkin:

Avstraliya -fond birjasi listing qoidalariga muvofiq, kompaniyalar hisobot davrida amalda bo'lgan korporativ bousharuv asosiy printsiplari to'g'rida deklaratsiya taqdim etishlari, ayniqsa, direktorlar hisoboti imzolangan sanagacha kompaniyada audit qo'mitasi faoliyat yuritganini kursatishlari shart. Agar kompaniyada bunday qo'mita tuzilgan bulmasa, buning sabablari tushuntirilishi lozim. Oraliq, yoki dastlabki natijalarni e'lon qilish bilan bir vaqtda, kompaniyada rasmiy tuzilgan audit qo'mitasi mavjudligi ham tasdiqlanishi lozim.

Kanada -qonunga muvofiq, Kanadadagi aksiyadorlik jamiyatlari kamida uch a'zodan iborat audit qo'mitasi tuzishi shart. Torongo fond birjasi ham, Monreal fond birjasi ham ro'yxatga olingan kompaniyalardan yillik hisobotga yoki axborotnomalarga "korporativ boshqaruv amaliyoti to'g'risida deklaratsiya"ni kiritishni talab qiladi. Qoida tariqasida, bunday deklaratsiyada bank kengashi kichik qo'mitalari, shu jumladan, audit qo'mitasi, ularning vakolatlari va faoliyati to'g'risida ma'lumot berilishi lozim. Aey qo'mitasining 1994 yilgi "Kanadada korporativ bousharuvning asosiy yo'nalishlari» hisobotida mufassalroq tavsiyalar berilgan.

Fransiya -1995 yil iyunda Fransiyadagi ikkita yetakchi ish beruvchilar federatsiyasi xomiyligida "Aksiyadorlik jamiyatlarining bank kengashi to'g'risida)gi Vieno hisobotini e'lon qildi. Bu ishbilarmonlarning amal qilish majburiy bulmagan o'ziga xos axloq kodeksidir. Hisobot har bir kompaniyaning bank kengashiga audit qo'mitasi tuzishni tavsiya qildi. Bunday qo'mita ichki nazorat tizimiga va hisob siyosatining to'g'riligiga alohida e'tibor berishi lozimligi qayd etildi.

Vieno tavsiyalari Parij birjasining listing k.oidalariga kiritilmadi. Bu tavsiyalardan foydalanish ixtiyoriy bo'lib qolmoqda.

Germaniya -korporativ boshqaruvga qo'yiladigan talablar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Nazorat va oshkoralik to'g'risidagi qonun 1998 yil may oyida kuchga kirgan. Qonunda tashqi auditorlarni tayinlash uchun kuzatuv kengashining javobgarligi belgilangan.

Yaponiya -bu mamlakatda fond birjasi tomonidan rasman qabul qilingan korporativ boshqaruv kodeksi mavjud emas. Lekin, 1998 yil may oyida Yaponiya korporativ boshqaruv forumi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan korporativ boshqaruv qoidalari kodeksini e'lon qildi. Forum kompaniyalarning bank kengashida mustaqil direktorlar soni ko'pligiga qarab bank kengashi a'zolaridan audit qo'mitalari tuzishni tavsiya etdi. Qo'mita vazifalariga kompaniya

tavakkalchiliklarini boshqarish jarayonlarini tahlil qilish va qonun hujjatlariga rioya etilishi masalalari kiradi.

Niderlandiya -1997 yil iyunda Amsterdam fond birjasining yordamida ishbilarmonlarning majburiy bo'lmagan axloq kodeksi Peters qo'mitasi hisoboti e'lon qilindi. Unda kompaniya kuzatuv kengashiga yoki bank kengashining audit bo'yicha kichik qo'mitasiga tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning sifati, qonunlarga va ichki nazorat muolajalariga rioya etilishi, shuningdek, tashqi auditorlar bilan hamkorlik ustidan nazoratni amalga oshirish tavsiya etildi.

R. Dusmuratov ham ichki audit haqida ko'plab firlarini va xulosalarini asoslab o'zining kitobida bildirgan. U asosan ichki audit hisob-kitoblari haqida yozgan. Ichki hisob-kitob muammolarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi quyidagilarni aninqlashdan iborat:

to'liqlik-barcha muammolarni buxgalteriya hisobotida aks ettirilganligi, hisobga olinmay qolgan hisob-kitoblar yo'qligi;

mavjudlik-balans tuzish sanasiga ichki hisob-kitoblar (mehnat haqi, hisobdor summalar va boshqalar) bo'yicha majburiyatlar mavjudligi va ushbu majburiyatlar summalarining katta-kichikligi;

huquq va majburiyatlar-ichki hisob-kitoblarga doir majburiyatlar summolari qonuniyligi va to'g'riligi 3ta (shaklan, qonuniylik va haqqoniylik) mezonlaridan kelib chiqqan holda;

baholashlar-ichki hisob-kitoblarga doir majburiyatlarning me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda baholanganligi;

aniqligi-mehnat haqi va undan ushlanadigan summalar, xizmat safari bo'yicha sutkalik xarajatlar summasi va boshqalarning to'g'ri hisoblanganligi, buxgalterlik hisoboti ma'lumotlarining sintetik va analitik hisob registrlaridagi ma'lumotlarga mosligi;

hisob davrining cheklanganligi-ichki hisob-kitoblarga doir barcha majburiyatlar qachon vujudga kelgan bo'lsa, aynan mana shu hisob davrida aks ettirilganligi;

taqdim etish va bayon qilish-ichki hisob-kitoblarga doir majburiyatlarning barchsi hisob va hisobotga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq bayon qilingan, turkumlangan va taqdim qilinganligi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida adabiyotlar sharhi to'liq tahlil etilgan holda, ulardagi jahon va mahalliy iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida ichki auditni samarali tashkil etish, uning ahamiyati va zaruriyati, uni ichki auditni xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirishga bergan fikr va qarashlari



atroflicha o'rganildi, shuningdek, ushbu fikrlarga asoslangan yo'nalishlar, jumladan tijorat banklarida ichki auditni samarali shakllantirishdagi asosiy tamoyillar va qoidalar belgilandi hamda tadqiqot yo'nalishi sifatida tadqiqot paradigmasi miqdoriy, obyektiv va ilmiy usullardan foydalanildi.

Tijorat banklarida ichki auditni samarali shakllantirish va uni ichki auditni xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot jarayon asosan deduktiv usulda amalga oshirildi. Unda sabab va natija ko'rinishidagi statistik dizayn ishlatildi. Ichki auditni samarali shakllantirish masalasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot vaziyatga bog'liq emas, chunki ichki audit tijorat banklarining yangi kam xarajatsiz moliya yili uchun shakllantiriladi va yil davomida unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib boriladi, albatta xalqaro meyoriy talablari va Markaziy bank tomonidan kiritilgan uslubiy o'zgarishlar asosida.

Ichki auditni samarali shakllantirish va uni ichki auditning xalqaro standartlari talablariga uyg'unlashtirish bo'yicha olib borilgan natijalarni umumlashtirish kelgusi moliyaviy hisobotni ishonchligini ortishiga va tijorat banklari uchun investitsiyalar xarakatini oshishini bashorat qilishga, tushuntirishga va tushunishga olib keladi. Shuningdek, tijorat banklarida ichki auditni oqilona tashkil etish va uni ichki auditning xalqaro standartlari asosida shakllantirishda tanlab olingan obyekt tijorat banklaridagi mavjud natijalarni ishonchligi tekshiruv va kuzatuvlar asosida tasdiqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda xorijiy davlat olimlari va mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan andoza olinib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ichki auditni samarali shakllantirish va uning uslubiyotini takomillashtirish hamda ichki auditni xalqaro standartlari talablariga moslashtirishda qiyosiy tahlil usullaridan ham foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ma'lumotlari, ichki audit bo'yicha yo'riqnomalar, xorijiy adabiyotlar, akademik maqolalar, internet manbalari, kutubxona kataloglari va boshqa ma'lumotlarga tayangan holda tayyorlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarida mavjud ichki audit konsepsiyasini ichki auditning xalqaro standartlari asosida to'g'ri va o'z vaqtida shakllantirish va unga to'liq amal qilish yuqoridagi ko'rsatkichlarning asosi bo'lib xizmat qilishi muqarrar. Natijada, tijorat banklari tomonidan yillik audit hisobotlarining ichki auditning xalqaro standartlari talablari asosida tayyorlash maqsadida tijorat banklarining ichki auditini ishlab chiqish va uni ichki auditning xalqaro standart talablari asosida takomillashtirishga zaruriyat yuzaga kelmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, bank tizimida avval ichki audit bo'lmaganmi, agar bo'lsa u bugungi kun talablariga javob beradimi?

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklarning deyarli hammasida turli darajadagi ichki audit ishlab chiqilgan bo'lsada, ushbu ichki auditlarini ichki auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirilgan deya olmaymiz. Shu o'rinda ichki auditning ahamiyati va uning zaruriyati haqida xalqaro me'yoriy xujjatlariga murojaat qilamiz. Ichki auditni shakllantirish borasida yagona bo'lib turgan xujjat bu- Ichki auditning xalqaro standartlari bemalol ayta olamiz.

Ichki audit xizmati va uning vazifalari.

Ichki audit xizmati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- moliyaviy hisobotning joriy auditini o'tkazish;
- buxgalteriya, amaliy va ma'muriy nazorat tizimlarining mosligini baholash;
- bank rahbariyati bilan hamkorlikda harakat qilish;
- bank xodimlariga o'z vazifalarini bajarish samaradorligi bo'yicha yordam berish;
- bank faoliyatini tashqi auditga tayyorlash.

Ichki audit xizmatiga quyidagi vazifalar ham yuklatilgan:

- ichki qoidalar, qo'llanmalar, taomyillar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- malaka oshirish va tajriba almashish uchun O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining shu kabi xizmatlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- tashqi auditorlarga axborot almashish va tashqi auditorlar faoliyatiga ko'maklashish orqali yordam ko'rsatish;
- tekshiruv materiallarini umumlashtirish va tekshiruv natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Auditorlik qo'mitasi va bank rahbariyatiga taqdim etish
- Auditorlik qo'mitasi va bank rahbariyatiga tekshiruvlar natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida takliflar kiritish.

Ichki audit xizmatini departament direktori yoki bank Bosh Boshqarmasi boshlig'i maqomiga ega bo'lgan xizmat Boshlig'i (Bosh auditor) boshqaradi.

Ichki audit xizmati quyidagi 3 ta sektordan iborat: faol operatsiyalar tavakkalchiligi sektori, operatsiya tavakkalchiliklari sektori va chakana xizmatlar tavakkalchiligi sektori. Har bir sektorni sektor boshlig'i boshqaradi.

Ichki audit xizmatining xodimlar soni bank Kengashi tomonidan uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli bo'lgan miqdorda tasdiqlanadi.

Bosh auditor bank Kengashi qarori bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, auditorlik xizmatining boshqa xodimlari bosh auditorning taqdimnomasi bo'yicha Auditorlik qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bank tizimidagi islohatlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklar faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llashni taqozo etadi. Shu bois, Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit xizmalari katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki va tashqi auditni

kuchaytirishga nisbatan qo'yayotgan qat'iy talablari moliya-kredit muassasalarining o'z zimmlariga yuklanayotgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishini zaruriyat qilib qo'yimoqda.

Audit o'tkazishning asosiy bosqichlari

Audit o'tkazish bosqichlari						
1-boshqich	2- boshqich	3- boshqich	4- boshqich		5-boshqich	
Tayyorlov bosqichi, yillik reja tuzish, byudjetlar va jadvallarni tasdiqlash	Direktorlar kengashining auditorlar tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qarori	Rejalashtirish	Tekshiruv o'tkazish jarayoni			Auditorlik xulosasini tayyorlash va uni imzolash (yakuniy bosqich)
		Batafsil reja tuzish, obyektlar dasturi, soni va grafik, risklar, ahamiyatlilik	Dastur tuzish, tekshiruv hujjatlarini to'plash, tahlil qilish	Tekshiruv obyektidan kelib chiqib xulosalar	Ichki nazorat	

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha, tijorat banklarning ichki audit xizmati umumiy bo'limida quyidagilar yoritib berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ichki audit xizmati maqsadi, ichki audit xizmati vazifalari, ichki audit xizmati asoslari, ichki audit xizmatining ichki auditning xalqaro standartlariga muvofiqligi, amaldagi schyotlar rejasi, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tamoyillari va sifat xususiyatlari, moliyaviy hisobotning elementlari, buxgalteriya xizmatini tashkil etish, javobgarlik va ichki nazorat, manfaatlar to'qnashuvi, qo'llanilish doirasi, muhimlik tushunchasi va darajasini belgilash, buxgalteriya hisobini tashkil etish, ichki audit xizmatini tanlashga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi.



Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, shuni aytishimiz mumkinki, ichki audit doimiy, kelajakka yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u biznes jarayonlarini, biznes va moliyaviy risklarni boshqarish va boshqarish tizimlarining samaradorligini baholashdan iborat. Faqat O'zbekistonda rivojlanayotgan holda kompaniyaning rivojlanish maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiladigan hodisalar. Kompaniyalarning amaliy tajribasi, xulosalari va tavsiyalari, allaqachon ichki auditdan foydalanadigan boshqa O'zbekiston kompaniyalari ichki audit xizmatlarini yaratishda foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, barcha qiyinchiliklarga qaramay, talab O'zbekistonda ichki audit barcha to'siqlarni bosqichma-bosqich yengib o'tish tufayli har yili o'sib bormoqda.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCE:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi" PF-5992 sonli farmoni 12.05.2020 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 3302-sonli nizomi 07.05.2021 yil.
3. Макальская А.К. Внутренний аудит. Уч. ДиС. М.: - 2005. 170 стр.
4. A.K. Ibragimov, Z.A. Umarov, K.R. Xotamov, N.K. Rizayev, "Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari". O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi Toshkent-2013.
5. Norqobilov S. Abdusalomova O. Banklarda audit. O'quv qo'llanma. Toshkent moliya instituti, T.: "Ma'naviyat" - 2005 y.-176 b.
6. Z.Mamatov. Аудит. Ўқув қўлланма. Тошкент-2014.
7. R.Dusmuratov. Audit asoslari. Darslik. Toshkent-2003.
8. K.Axmadjanov. Ichki audit tekshiruvi texnologiyasini tayyorlash, rejalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent-2020.
9. <https://lex.uz/>
10. <https://ejournal.tsue.uz/>
11. <https://arxiv.uz/>
12. <https://cbu.uz/>